

BANK VA BANK TIZIMINING TARIXI VA RIVOJLANISHI

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti Bank ishi kafedra o'qituvchisi

Abduvaxobov Shaxzod

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti talabasi

Axatov Umar

Annotatsiya. Mazkur maqolada iqtisodiyotning rivojlanishi va takomillashishida banklarning o'rni va roli haqida mualliflar tomonidan fikr- mulohazalar keltirilgan. Bank va bank tizimining tarixi va rivojlanishi haqida muallif qarashlari haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar. Bank, bank faoliyati, bank tarixi, pul, kapital.

Kirish. **Bank** — bu jismoniy shaxslar va turli tashkilotlardan pul mablag'larini qabul qilib, ularni ishonchli tarzda saqlovchi hamda turli xil moliyaviy xizmatlar, jumladan kreditlar taqdim etuvchi moliya muassasasidir. Banklar moliyaviy bozorning asosiy elementlaridan biri bo'lib, ularning faoliyati mamlakat iqtisodiy barqarorligiga katta ta'sir ko'rsatadi.

Bank tizimi — bu banklar va boshqa moliyaviy muassasalarning yagona mexanizmda faoliyat yurituvchi yig'indisidir. Bu tizim nafaqat mablag'larni muhofaza qiladi, balki mijozlarga kredit ajratadi va boshqa xizmatlarni ham ko'rsatadi. Bank tizimi iqtisodiy infratuzilmaning ajralmas qismidir va moliyaviy operatsiyalarning uzlusizligini ta'minlaydi.

Turli davlatlarda bank tizimi o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lishi mumkin. Biroq, ko'pchilik hollarda u bir necha bosqichdan iborat bo'ladi. Eng yuqori darajada Markaziy bank turadi — u foiz stavkalarini belgilaydi, pul muomalasini nazorat qiladi hamda boshqa banklar ustidan nazoratni amalga oshiradi.

Keyingi darajada esa tijorat banklari joylashadi. Ular mijozlarga to'g'ridan-to'g'ri xizmat ko'rsatib, omonatlarni qabul qiladi va qarz ajratadi.

Bundan tashqari, mintaqaviy banklar mavjud bo‘lib, ular faqatgina ma’lum hudud yoki jamiyat doirasida faoliyat yuritadi. Ayrim mamlakatlarda esa kredit uyushmalari mavjud bo‘lib, ular aniq bir tashkilot yoki guruh a’zolariga moliyaviy xizmatlar ko‘rsatishga ixtisoslashgan bo‘ladi.

Bank tizimining tarixiga nazar tashlasak, eng qadimgi bank xizmatlari miloddan avvalgi 2000-yillarda Mesopotamiya hududida paydo bo‘lgan. O‘sha davrlarda banklar asosan oltin-kumush kabi qimmatbaho buyumlarni saqlash bilan shug‘ullangan. Vaqt o‘tishi bilan ular kredit berish va qarz xizmatlarini ham ko‘rsata boshladи. Uyg‘onish davriga kelib esa bank tizimi jadal rivojlandi va banklar yuqori obro‘-e’tiborga ega bo‘ldi.

O‘zbekiston bank tizimini shakllantirish va rivojlantirish strategiyasi mamlakat iqtisodiyotini bosqichma-bosqich bozor munosabatlariga o‘tkazish dasturiga muvofiq tarzda amalga oshirilib kelmoqda. O‘tgan yillar davomida olib borilgan bank islohotlari natijasida milliy bank tizimi ikki bosqichli struktura asosida shakllandи: yuqori bosqichda — Markaziy bank, quyi bosqichda esa — tijorat banklari faoliyat yuritmoqda. Shu bilan birga, banklar soni va ularning ko‘rsatadigan xizmat turlari sezilarli darajada oshdi.

1995–1996-yillarda bank sohasidagi qonunchilik tubdan takomillashtirildi. 1995-yil 21-dekabrda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki to‘g‘risida”gi qonun nafaqat bank tizimining huquqiy asoslarini mustahkamladi, balki Markaziy bankning maqomi, maqsadi, vazifalari va vakolatlarini aniq belgilab berdi. 1996-yil 25-aprelda qabul qilingan “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi qonun esa tijorat banklarining huquqiy asoslarini xalqaro mezonlarga moslashtirdi.

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki — mamlakatning bosh banki hisoblanadi. Uning tarkibiga Qoraqalpog‘iston Respublikasi, 12 viloyat va Toshkent shahri boshqarmalari kiradi. Markaziy bank 1992-yil sentabriga qadar sobiq SSSR Davlat bankining O‘zbekiston bo‘limi sifatida faoliyat yuritgan. Bank tizimining quyi bosqichi esa paxta, aksiyadorlik tamoyillari asosida, shuningdek xorijiy kapital ishtirokida tashkil etilgan banklar, ularning filial va vakolatxonalar, kooperativ va xususiy banklardan iborat.

Bank sohasini monopoliyadan chiqarish bank tizimi islohotlarining eng muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, dastlab iqtisodiyotning ayrim sohalariga xizmat ko‘rsatadigan ixtisoslashgan banklar tashkil etish orqali amalga oshirildi. Bu esa bozor mexanizmlariga asoslangan bank tizimini yaratish yo‘lida muhim va tabiiy bosqich bo‘ldi.

20-asr oxirlariga kelib, bozor iqtisodiyoti prinsiplariga sodiq qolgan ko‘plab mamlakatlar bank tizimini to‘liq davlat nazoratidan chiqarishga qaror qildilar. Bu qaror banklarga erkinroq faoliyat yuritish, bozor talablariga moslashish va yuqori daromad olish imkoniyatini yaratdi. Shunga qaramay, bank tizimi turli tavakkalchiliklarga ochiq bo‘lib qoldi. So‘nggi yillarda esa hukumatlar bank tizimidagi xatarlarni boshqariladigan darajada ushlab turishga intilib, nazorat choralarini kuchaytirmoqda. Zamonaviy bank tizimi tobora kengayib, o‘sib bormoqda. U orqali kredit kartalari, elektron hisob-kitoblar kabi ko‘plab moliyaviy vositalardan foydalanish imkoniyati yaratilgan. Bank tizimi oddiy fuqarolarning iqtisodiy faolligi, tadbirkorlik faoliyati va hayot darajasiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. O‘zbekistonda birinchi bank muassasasi 1875-yilda Toshkentda tashkil etilgan bo‘lib, u Rossiya imperiyasi Davlat bankining filiali sifatida ish boshlagan. 19-asr oxiriga kelib esa, Turkiston hududida rus kapitali ishtirokida bir nechta banklarning faoliyati yo‘lga qo‘yildi. Bularga O‘rta Osiyo aksiyadorlik banki (1881), Volgakama banki (1893), Rus-Xitoy (Rus-Osiyo) banki (1903), Azov-Don savdo banki (1910), Nijniy Novgorod-Samara banki (1899), Poltava Yer banki (1901) kiradi. Ularning filial va vakolatxonalari hududda faoliyat olib bordi. Oktabr inqilobidan so‘ng, butun bank tizimi sovet hokimiyati tomonidan davlat mulkiga aylantirildi (natsionalizatsiya qilindi). O‘zbekistonda bank tizimi 1924-yildan boshlab sobiq SSSR bank tizimining bir qismi sifatida qayta tashkil etildi. 1992-yilgacha bo‘lgan davrda respublikadagi bank faoliyati SSSR Davlat banki (1923; avval RSFSR Davlat banki), SSSR Qurilish banki (1959; avval SSSR Savdo banki), SSSR Tashqi savdo banki (1924) tomonidan boshqarib borildi. SSSR parchalanishi arafasida, O‘zbekistonda mustaqil bank tizimini shakllantirish bo‘yicha dastlabki huquqiy asoslar yaratildi. 1991-yil 15-fevral kuni O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining sessiyasida “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi qonun qabul qilindi. Ushbu qonun bilan respublikada mustaqil bank tizimining shakllanishi uchun huquqiy zamin yaratildi.

Shundan so'ng, sobiq SSSR banklarining O'zbekistondagi filiallari O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan mustaqil banklar sifatida ro'yxatga olina boshlandi.

Xulosa. 1992-yildan boshlab, O'zbekistonda "O'zbank-audit" nomli banklararo aksiyadorlik jamiyati shaklidagi auditorlik kompaniyasi o'z faoliyatini boshladi. 1996-yildan e'tiboran, ushbu auditorlik kompaniyasi bilan bir qatorda "Deloitte & Touche", "Ernst & Young" kabi beshta yirik xalqaro auditorlik va konsalting firmalari hamda mahalliy "Xolis" guruhi va "Odil Audit" firmalari ham O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan rasmiy sertifikatlar asosida bank auditini amalga oshirish huquqini oldilar. 2000-yil 1-yanvarda O'zbekiston Respublikasi banklari tomonidan mijozlarga 529 mlrd. so'mlik kredit qo'yilmalari ajratilib, shundan 237 mlrd. so'mi qisqa muddatli, 292 mlrd. so'mi o'rta va uzoq muddatli kreditlarni tashkil etdi. O'rtacha foiz stavkasi qisqa muddatli kreditlar bo'yicha 33,7 %, o'rta muddatli kreditlar bo'yicha 23 %, uzoq muddatli kreditlar bo'yicha 13 % dan iborat bo'ldi.

Foydalanimgan adabiyotlar ro'yxati

1. Тавасиев А.М. Банковское дело: Учебник для бакалавров / А.М. Тавасиев. — М.: Юрайт, 2017. — 647 с.
- 2 У.Азизов, Т.Каралиев и др. «Банковское дело» учебное пособие. Ташкент 2018 г.
- 3 Закон Республики Узбекистан «О банках и банковской деятельности». № ЗРУ-580. от 5 ноября 2019 г.
- 4 Алексеев П.В. Банковское дело: управление в современном банке. Учебное пособие для ВУЗов / П.В. Алексеев, сост. -М.: КноРус, 2018. - 304 с.
- 5 Закон Республики Узбекистан «О центральном банке Республики Узбекистан». № ЗРУ-582. от 11 ноября 2019 г.